



“TASDIQLAYMAN”

Yangibozor tumani hokimi


R. Jumaniyazov

« 4 » iyul 2023 yil



**Yangibozor tumani hokimligida o‘tkazilgan yig‘ilish
BAYONNOMASI 50**

2023-yil 4 iyul

Yangibozor tumani hokimligi
majlislar zali

Yig‘ilish raisi
Ishtirok etdilar :

R. Jumaniyazov, tuman hokimi
Tuman hokimi o‘rinbosarlari, bo‘lim
boshliqlari va mutaxassislari, tumandagi
korxonalar va tashkilot rahbarlari, xalq deputatlari
tuman Kengashi deputatlari

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2023-yil 20-iyundagi “Xorazm viloyatidagi hududiy davlat organlari rahbarlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyati yuzasidan axborotlarini eshitish natijalari haqida”gi 4/425-sonli qo‘shma qarorning ijrosi yuzasidan Yangibozor tumanida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida.

*(R. Jumaniyazov, J. Xalmetov, D. Erkayev, G. Ruzmetov, I. Qalandarov, B. Yamg‘urov, X. Urazbayeva,
A. Matyakubova, R. Matyusupov, L. Babajanov, K. Raximov)*

Kun tartibidagi masala yuzasidan Yangibozor tumani hokimi R. Jumaniyazov so‘zga chiqib, Yangibozor tumanida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tumandagi barcha korxonalar va tashkilotlarda targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirilib, korrupsiyaning kelib chiqishiga shart-sharoit yaratilishining oldini olish va korrupsiyaning salbiy oqibatlarini bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borilganligi to‘g‘risida gapirib o‘tdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2023-yil 20-iyundagi “Xorazm viloyatidagi hududiy davlat organlari rahbarlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyati yuzasidan axborotlarini eshitish natijalari haqida”gi 4/425-sonli qo‘shma qarori o‘qib eshittirildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar yaratildi.

Byurokratik to‘siqlarning bekor qilinishi natijasida davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati yanada yaxshilandi.

Shuningdek, tuman IIB, adliya bo'limi, huquqni muhofaza qilish muassasalari va tuman hokimligi xodimlariga ish faoliyati davomida korrupsion huquqbuzarlik holatlariga yo'l qo'yish bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik to'g'risida gapirib o'tdi. Bundan tashqari tumanda ishga qabul qilishdagi ta'magirlik va korrupsion holatlar mavjudligi, davlat va tashkilotlar vakant lavozimlariga tanlovsiz ishga qabul qilish holatlariga yo'l qo'ymaslik, tumanda bo'sh ish o'rinlarini yashirish holatlari yuz bermasligi to'g'risida to'xtaldi.

Shuningdek, Yangibozor tumani hokimligining rasmiy veb-saytlarida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'liq joylashtirilmaganligini ta'kidlab o'tildi.

Shundan keyin Yangibozor tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, 3-sektor rahbari I.Tajimuratov so'zga chiqib, tuman hududida korrupsion holat bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida to'xtalib, jamiyatda jinoyatga jazo muqarrar ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng xalq deputatlar tuman Kengashi kotibiyati mudiri A.Matyakubova so'zga chiqib, korrupsiya ko'p sodir etilgan jinoyatlar soha vakillari bu boradagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha barcha zarur tadbirlarni amalga oshirishlarini ta'kidlab, o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tdi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar hamda takliflarni inobatga olib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yil 20-iyundagi "Xorazm viloyatidagi hududiy davlat organlari rahbarlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyati yuzasidan axborotlarini eshitish natijalari haqida"gi 4/425-sonli qo'shma qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi barcha korxonalar va tashkilot rahbarlariga:

- tumanda ochiqlikni ta'minlash maqsadida tuman hokimligining rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar har oy yakuni bilan tuman hokimligi matbuot kotibi (U.Nurmetova)ga taqdim qilib borilsin.

3. Tuman hokimligi matbuot kotibi (U.Nurmetova)ga doimiy ravishda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida ochiq ma'lumotlar sifatli joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni to'liq joylashtirilishi ta'minlab borilsin.

4. Mazkur majlis bayoni qarorining ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari I.Qalandarov hamda xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri A.Matyakubova zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnomani yuritdi




U. Qo'chqarov

Маълумотнома

Янгибозор тумани ҳокимлигининг расмий веб - сайтидаги аниқланган камчиликларни бартараф қилиш юзасидан “Рақамли иқтисодиётни ривожлантириш” МЧЖ билан шартнома қилинди. Унга асосан бугунги кунда сайтни дизайнини янгилаш, Вазирлар Маҳкамасининг 373-сонли қарори талаблари асосида қайтадан ишлаб чиқиш, шунингдек “Тизимга зарарли код киритувчи, тармоқлараро скрипт” (XSS) заифлигини бартараф этилиши чоралари кўрилди.

Шунингдек, сайтда Очiq маълумотлар бўлими биринчи саҳифага жойлаштирилди. Янгидан “Коррупцияга қарши курашиш” бўлими ташкил этилди. Ҳозирги кунда очiq маълумотларни сайтга жойлаштириш учун керакли ҳужжатлар тўпланмоқда. Бу бўйича масъул бўлган ташкилотлар огоҳлантирилган.

Янгибозор тумани ҳокимлиги
матбуот хизмати раҳбари



Умида Нурметова